

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

REFERAT

Mavzu: TINCHLIK VA XOTIRJAMLIK-FAROVONLIK OMILI

Topshirdi: Sadullayeva N.
Qabul qildi: Abduqayumov A.

Toshkent-2013



TINCHLIK VA XOTIRJAMLIK-FAROVONLIK OMILI



Istiqlol bergan ne'mat - osuda hayot, farovon turmush barchamizning, avvalo, farzandlarimizning baxti, yurtimiz kelajagining asosidir. Prezidentimiz o'tgan haftada nishonlangan Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan poytaxtimizdagi Xotira maydonida ommaviy axborot vositalari vakillari bilan suhbatda ayni shu xususda yana bir bor to'xtalib, bu ne'matning qadriga yetish zarurligini alohida ta'kidladi. Aytish kerakki, davlatimiz rahbarining fikr-mulohazalari har bir insonni yurtimizdagi osuda hayot bardavomligini ta'minlash uchun hushyorlikka, xalqaro maydondagi vaziyatni to'g'ri baholab, yon-atrofdagi yuz berayotgan voqyea-hodisalarga nisbatan sezgir munosabatda bo'lishga undaydi. Nuroniylarimiz har gal duoga qo'l ochganda yurtimizga, butun dunyoga tinchlik va xotirjamlik tilashadi. Zero, ushbu ulug' ne'mat mujassam bo'lgan davlatda rivojlanish va taraqqiyot bo'ladi, odamlari esa farovonlik quchog'ida haqiqiy baxt ta'mini tuyib yashaydi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimiz mustaqilligining 22 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zida ana shu hayotiy haqiqatni yana bir bor tilga olar ekan, barchamizni tinchlik va omonlikni ta'minlash yo'lida doimo hushyor bo'lishga chorladi. Jumladan, "...xalqimizning yurak-yuragiga singib, hayotining mazmuniga aylanib ketgan "Bizga tinchlik va omonlik kerak" degan ezgu da'vatni amalga oshirish hammamizning eng dolzarb vazifamiz bo'lishini istardim", deya ta'kidlagan so'zlari zahirida ushbu ulkan haqiqat mujassam. Yurtboshimizning mazkur tabrik so'zi mazmun-mohiyati joylarda, xususan,

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

Insoniyat yashash davomida ezgu maqsadlarga yetish uchun doimo izlanadi va harakatda bo'ladi. Ezgu maqsadli inson orzu-umidini amalga oshirishi uchun eng katta tayanch tinchlik va osoyishtalik muhitidir. Odatda, tinchlik so'zi kishini bezovta qilmaslikni, holatlarning tinch va osoyishta, urush-janjalsizligini, hayot va turmush tizimini bir me'yorida bo'lishligini ifoda etadi. Oilada tinchlik va osoyishtalik hukm sursa, oila bardavom va mustahkam. El-yurtda tinchlik va osoyishtalik davom etsa, mamlakat taraqqiyoti, farovonligi, yurt ahlining turmushi obod bo'ladi. Bularni aks ettiruvchi muqaddas qadriyatlarimiz, milliy urf-odat va rasm-rusumlarimiz, dinimiz bevosita xotirjamlik silsilasiga uzviy bog'liqdir.

Xalqimiz tinchlik va osoyishtalikni istab kundalik hayotida qator diniy va milliy fazilatlarni amalga oshiradi. Jumladan: Ular ko'rishganida salom beradi. Bu bir-birlariga tinchlik, omonlik tilash ramzidir. Yurtimizning har bir shahri, qishloq va ovulida bugungi zamonga mos shiddat va yuksalishlarning guvohiga aylanasiz.



Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida, har bir mahalla, qishloq, xonadon, har bir yurtdoshimiz qalbida bayram shukuhi hukmron. Prezidentimiz Islom Karimovning shu yil 6 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq joylarda "Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!" shiori ostida adabiy-badiiy kechalar, davra suhbatlari, turli madaniy-ma'naviy tadbirlar tashkil etilmoqda, madaniyat va san'at arboblari bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda, yangi korxonalar, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, sport obyektlari foydalanishga topshirilmoqda.

Eng ulug', eng aziz bayramimizni ana shunday quvonch va iftixor, shukronalik kayfiyati bilan kutib olish an'anaga aylangan. Zero, tinchlik,

osoyishtalik, barqarorlik, kishilar o'rtasida mehr-oqibat, ko'ngillarda xotirjamlik bo'lgan joydagina yurakka bayramlar sig'adi. Psixologlarning ta'kidlashicha, xotirjamlik insonning eng muhim ruhiy ehtiyoji bo'lib, shaxs sog'ligi, jamiyat barqarorligini ta'minlashda katta o'rin tutadi. Insonda osoyishtalik va xotirjamlik hissi bo'lsagina, ko'zlagan maqsadlari yo'lidagi sa'y-harakatlari samarali bo'ladi va muvaffaqiyatga erisha oladi. Xuddi shunday tinchlik va barqarorlik hukmron bo'lgan mamlakatdagina taraqqiyot bo'ladi, bunyodkorlik ishlari rivoj topadi. Xalqimiz yurt tinchligini ulug' ne'mat, qut-baraka, taraqqiyot garovi, o'z orzu-intilishlari, ezgu niyatlari ro'yobining muhim kafolati deb bilishi, har doim duoga qo'l ochganda Yaratgandan elu yurtimizga tinchlik-omonlik, yaxshilik va to'kinlik so'rab, ezgu niyat qilishi zamirida ham ana shunday chuqur mazmun mujassam.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab jamiyatimizda barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini asrash hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi. Shu haqda so'z yuritganda, davlatimiz rahbarining insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri bu – tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdir. Bu huquqni amalga oshirish – davlat va jamiyatni demokratlashtirishning eng muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi ham shu bilan belgilanadi, degan fikrlarini yana bir bor eslash joiz. Mamlakatimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, mehr-oqibat, o'zaro hurmat, millatlararo totuvlikni ko'z qorachig'idek asrash eng katta vazifalarimizdandir. Binobarin, yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz yo'lida elu yurtimiz boshdan kechirgan og'ir sinovlarni yoddan chiqarmasligimiz, mustaqilligimizni, tinch-osoyishta hayotimizni asrash uchun har birimiz doimo kurashib yashashimiz lozimligini alohida ta'kidlash kerak.

Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, agar biz bugungi hayotimizga, bunyodkorlik ishlarimizga, erishayotgan yutuqlarimizga to'g'ri baho bermasak, ularning qadriga yetmasak, hushyorligimizni yo'qotib, turli tahdidlarni, tinch turmushimizga, xavfsizligimizga raxna solishga urinayotgan, oyoq ostidan chiqayotgan har xil balo-qazolarni payqamay-sezmay qolishimiz mumkin.

Xalqimizning bir kun janjal bo'lgan joydan qirq kun baraka ketadi, degan naqlida katta hikmat bor. Uzoqqa bormaylik, yon qo'shnimiz Afg'onistondagi vaziyatni ko'z oldimizga keltiraylik. O'ttiz yildan beri tinmayotgan urush jafokash afg'on xalqi boshiga ne-ne kulfatlarni solmadi deysiz. Beqarorlik tufayli mamlakat iqtisodiyoti izdan chiqdi, xalqning tinka-madori qurib, yurtidan qut-baraka ketdi. Bugungi dunyoda o'zining qadr-qimmatini, g'urur va nomusini anglab yashaydigan, o'z kuchi va qudratiga ishongan, o'z mehnati va aql-zakovati bilan kelajagini qurishga va o'z yurtini himoyalashga qurbi yetadigan davlat va xalqni jahon ahli tan oladi va hurmat qiladi.

Dunyo mafkuralar kurashi maydoniga aylangan hozirgi zamonda inson ongu tafakkurini zabt etish uchun bo'layotgan harakatlarga beparvo qarash mumkin emas. Muqaddas Vatanimiz tinchligi va farovonligini, xalqimiz hamjihatligini yanada mustahkamlash uchun hammamiz, har birimiz doimo hushyor, ogoh bo'lmog'imiz, bugungi tinch-osoyishta kunlarning qadriga yetib, uni ko'z qorachig'idek asrashimiz darkor.

Tinchlik – farovonlikning muhim omili. Osoyishta yurtida yuksalish bo'ladi, farovon eldan xotirjamlik ketmaydi. Istiqlol sharofati, davlatimiz rahbarining oqilona siyosati samarasida saodatli, fayzli kunlarga musharraf bo'lmoqdamiz. Xalqimiz buyuk davlat barpo etish yo'lida ulug' bunyodkorlik ishlari bilan band. Millatimiz tabiatiga xos mehr-oqibat, ahillik, o'zaro hurmat singari xislatlarning jamiyatimizdagi o'rnini yanada mustahkamlab, ularni yosh avlod ongi va qalbiga singdirish ertangi kunimiz yanada charog'on bo'lishining, ezgu maqsadlarimiz ijobatining muhim mezonidir. Shu bois elu yurtimizning eng buyuk boyligi bo'lgan tinchlikni mustahkamlash, uni doimo asrash har birimizning fuqarolik, farzandlik burchimizdir.

Yurtboshimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar joylarda ana shu ko'rinishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Zero, istiqloldan kuch olgan hamda tinchlik va totuvlikni qadrlab, "dunyoda tinchlik bo'lsin", deb yashayotgan xalqimiz bundan ham ulkan cho'qqilarni zabt etishga qodir.